



Xalq so'zi

2024-YIL – YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 17-iyun, № 121 (8744)

Dushanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling.



SAMIMIY QUTLOVLAR

Butun musulmon ummati uchun muqaddas bo'lgan ezzulik, saxovat, insonparvarlik va hamjihatlik kabi oliyjanob qadriyatlarni o'zida mujassam etgan, jamiyatda o'zaro hurmat va bag'rikenglikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi Qurbon hayiti – lyd al-Adho bayrami munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga xorijiy davlatlar va hukumatlar yetakchilari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari, taniqli jamoat va din arboblardan samimiy tabriklar kelmoqda.

Qutlovlarda davlatimiz rahbari va O'zbekistonning ko'p millatli xalqiga hurmat-ehtirom so'zlarini, tinchlik-osoysiztalik va ravnaq tilaklari izhor etilgan hamda do'stlik va ko'p qirrali hamkorlikni bundan buyon ham har tomonlama mustahkamlashga qat'iy intilish bildirilgan.

Jumladan, quydagilar o'z tabriklarini yo'llagan:

Ikki Muqaddas Masjid xodimi, Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon ibn Abdulaziz Ol Saud;

Saudiya Arabistoni Valiha, Vazirlar Mahkamasi Raisi Muhammad ibn Salmon ibn Abdulaziz Ol Saud;

Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan;

Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdulfattah as-Sisi;

Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev;

Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov;

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon;

Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov;

Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov;

Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev;

Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon;

Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay amirligi hokimi

Shayx Muhammad bin Roshid Ol Maktum;

Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri o'rinosari, Prezident ishlari bo'yicha vaziri

Shayx Mansur bin Zoid Ol Nahayon;

Birlashgan Arab Amirliklari Bosh vaziri o'rinosari, ichki ishlari vaziri Shayx Sayf bin Zoid Ol Nahayon;

Saudiya Arabistoni davlat vaziri, Vazirlar Mahkamasi a'zosi Turki bin Muhammad bin Fahd bin Abdulaziz Ol Saud;

Kuvayt Davlati Amiri

Shayx Mish'al al-Ahmad al-Jobir as-Saboh;

Kuvayt Davlati Valiha

Saboh Holid al-Hamad al-Muborak as-Saboh;

Iordaniya Hoshimiyalar Podshohligi Podshohi Abdulla II;

Marokash Podshohi Muhammad VI;

Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi Prezidenti Abdulmajid Tebbun;

Falastin Davlati Prezidenti Mahmud Abbos;

Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi

Kubanichbek Omuraliyev;

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bosh kotibi

Husrov Noziriy;

Islom hamkorlik tashkiloti bosh kotibi

husayn Ibrahim Toha;

Kavkaz musulmonlari idorasi raisi shaykulislom

Oliohshukur Poshshozoda.

Qutlovlar kelishi davom etmoqda.

SHUKRONALIK VA MEHR-MURUVVAT BAYRAMI

Mehr-muruvvat, ezzulik va saxovat ramzi – muborak Qurbon hayiti yurtimizda keng nishonlanmoqda. Har bir mahalla, shahar va qishloqda hukm surayotgan fuzy tarovat, insonlar yuz-ko'zidagi mammunlik va quvonch ushu ayjom shuhuidanidir.

Prezidentimizning O'zbekiston xalqiga Qurbon hayiti tabrigini yurtoshdarlarimiz katta xursandchilik bilan kutib oldi. Zero, unda ta'kidlaniganidek, xalqimiz yuritda ezzulik, mehr-muruvvat, saxovat va olibjarolik ramzi sifatida mustahkam qaror topgan Qurbon hayiti bugungi kunda biz uchun barcha sohada inson qadri yetakchi o'ringa chiqayotgan yangi O'zbekistondagi keng ko'lami islohotlar mazmuniga naqadar uyg'un va hamohang ekani bilan yanada ahamiyati bo'lib bormoqda.

Shukuh
16-iyun kuni Toshkent shahrida Qurbon hayiti namozi o'qilishi munosabati bilan aholiga qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida jamoat transporti faoliyatini soat 03:00 dan boshlab yo'iga qo'yildi. Avtobus yo'nalishlari va metropoliten soat 10:00 ga qadar yo'lovchilarga bepul xizmat ko'satdi.

Etra tongda yurtoshdarlarimiz poklanib, ko'tarinkin yuritdayta, go'zal suradta Qurbon hayiti namozini ad etish uchun poytaxtimizdagi masjidlarga tashrif buyurdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida
Qurbon hayiti katta shodu xurramlik bilan kutib olindi. Nukus shahridagi Imom

eshon Muhammad jome masjidida hayit namozi o'qildi. Bundan tashqari, shahar va tumanlardagi yirik ziyoratgohlar va 50 dan ortiq jome masjidlarda ham hayit namozi ado etildi. Ularda 20 mingdan ortiq kishilar qatnashdi.

– Xo'jayli tumanidagi Pirim lyshan bobo jome masjididi hayit namoziqiga kelganlar bilan yanada fayzli bo'ldi, – deydi Tavakkal ota Abduxoligov. – Bu ulug' ayyomning ruhi ya shukuhni har bir yurtoshimizda yaqqla sezildi. Shunday yorug' kunlarga yetkazgani uchun Yaratganga cheksiz shukronalar aytdi.

Bayram tadbirlarida din vakillari, hokimiyat va mutasaddi tashkilotlar rahbarlari so'zga chiqib, Prezidentimiz rahbarligida muqaddas dinimizni ulug'lash, uning asl insonparvarlik mohiyatini targ'ib qilish, xalqimizning diniy bilimlarini oshirish, masjid va madrasalar, diniy ta'lim muassasalarining moddigi-texnika bazasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida gapirib o'tdi. Kam ta'minlangan hamda boquvchisini yo'qotgan oilalar, yolg'iz

keksalar, mehnat faxriylari holdidan xabar olinib, hayit hadyalarini tarqatildi.

Keyingi yillarda Andijon viloyatida milliy va diniy qadriyatlarni rivojlantirish, vijdon va e'tiqod erkinligini ta'minlash borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mavjud dam olish maskanlari, madaniyat va istirohat bog'liari tartibga keltilib, ziyoratgohlarda obodonlashtirish ishlari yo'iga qo'yildi. Qurbon hayiti namozi viloyatdagi 179 ta jome masjidini hamida Said Muhyiddin mahdum o'rta maxsus islam bilim yurtida o'qildi.

Nuroniyalar muqaddas qadamjolarni ziyorat qilishdi. Qarindosh-urug'lar, yoru birodarlar bir-birlarini yo'qlashdi. Ko'mak va yordanga muhitjardan xabar olish shaxsotpesha insonlarning ezgu amaliga aylandi.

– Jamoamiz bilan birkalgalida Andijon tumanidagi Mehribonlik uyiga urug'lar, – deydi sartarosh Mashhurbek Karimov. – Bolajonlarga bepul xizmat ko'satdi. Ko'ngilochar dasturlar yushtirdik. Hayit ayyomi chinakam mehr-oqibat, shodlik bayramiga aylandi.

O'zbekiston – kelajagi buguk davlat

NAVQIRON AVLOD KAMOLOTI

YO'LIDAGI EZGU TASHABBUSLAR

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida: "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoyi davlat" deb belgilab qo'yilishi mamlakatimizda inson qadri ulug'langan, farovon jamiyat qurishda dadil qadam bo'ldi.

Qolaversa, 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovlari islohotlarning mantiqiy davomi hisoblanadi. Misol uchun, strategiyaning "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" nomli to'rtinchu ustuvor yo'naliishi ijtimoiy davlat negizini tashkil etuvchi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Tahlil



Keyingi yillardagi keng ko'lamli islohotlarga ahamiyat beradigan bo'lsak, ularning aksariyati ijtimoiy sohaga yo'naltirilganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, aholining ijtimoiy himoya muhitoy hamda ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va ularga davlat tomonidan yordam ko'rsatish tizimli yo'iga qo'yilmoqda. Ya'niz mazkur masalalarga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Davlat budgeti mablag'i larining asosiy qismini aynan shu kabi maqsadlarga yo'naltirilayotgani ham fikrimizning amaliy tasdig'idir. Ta'kidlash joizki, ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan oilalar, ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun joriy etilgan "temir daftar", "ayollar daftari", "yoshlar daftari" va mahallabay ishshash tizimi ham ijtimoiy davlatning mohiyatini va hayotiy ko'rinishini namoyon qilmoqda.

Sog'lon va barkamol avlodni tarbiyalash, ulami siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning faol ishtirokchisi hamda jamiyatning haqiqiy tayanchi va suyuchiga aylantirish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

►3

KELISHUVLAR IKKI MINTAQА TARAQQIYOTIDA ALOHIDA O'RIN TUTADI

Bugungi kunda O'zbekistonda 172 mingdan ortiq koreyslar istiqomat qiladi. Bu Markaziy Osiyoda yashayotgan koreyslar umumiyo sonining yarmidan ko'pidir. Qolaversa, koreys xalqi o'zbek jamiyatida ahilinoq yashab, o'zining mehnatsevarligi bilan turli sohalar ravnaqiga munosib ulush qo'shmaqda. O'z navbatida, minglab o'zbekistonlik yoshlar Janubiy Koreyada ta'lim olayotgan bo'lsa, yana minglab vatandoshlarimiz u yerda mehnat qilib davlat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Aks sado

Yaqin tarixda bog'langan munosabatlar rishtasiga nazar solsak, O'zbekiston hamda Koreya Respublikasi o'tasidagi o'tgan 32 yillik vaqt davomavot avtomobilsozlik, energetika, maishiy texnika, to'qimachilik, moliya, telekommunikatsiyalar va boshqa qator yo'nalishlarda

iqtisodiy hamkorlik loyihalari muvaffaqiyatl amalga oshirib kelinayotir.

Ushbu do'stona aloqalar rivojida ikki mamlakat yetakchilari o'tasida mutazamlik kasb etayotgan doimiy muloqotlar hamda bundan besh yil oldin imzolangan Alohida mounasabatlari to'g'risidagi bitimning o'rnii yuqori, albatta.

Koreya Respublikasi O'zbekistonning yetakchi savdo va investitsiya hamkorlaridan bira.

Birgina, o'tgan yilning o'zida tovar ayirboshlash hajmi 2,5 mlrd. dollarni tashkil etdi, koreys investitsiyalari hajmi esa 7,5 mlrd. dollardon oshdi.

Munosabatlar madaniy gumanitar yo'nalishlarda ham jadallashmoqda. Jumladan, mamlakatimizga tashrif buyuruvchi Janubiy Koreyalik turistlar oqimi ortib bormoqda, ularga quylaylik yaratish maqsadida Toshkent va Seul o'rtasida bir haftada 10 ta aviaparvoz amalga oshirilayapti.

Shuningdek, yuritmasi Janubiy Koreya yetakchi olyigohlarining 4 ta filiali muvaffaqiyatl faoliyat yuritmoqda. O'z navbatida, Janubiy Koreyada 11 mingdan ortiq o'zbekistonlik talabalar ta'lil olmoqda.

►2

Davlat xizmati:

SIFAT VA SAMARADORLIKNING MUHIM OMILI

Mamlakatimizda barcha sohada amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar yuqori malakali boshqaruv kadrlarini samaradorlikning tizimini zamona yondashuv asosida rivojlantirishni talab etmoqda.

Bunda, eng avvalo, davlat xizmati uchun munosib kadrlarini tanlash va tayinlash, adolatli, ochiq tanlov mexanizmlari va meritokratiya tamoyillariga yanada e'tibor qaratish ahamiyatlidir.

Nuqtai nazar

Qayd etish joizki, hozirda davlat fuqarolik xizmatchilarini vakant lavozimlarining yagona ochiq portali – "vacancy.argos.uz" orqali davlat organlari uchun kadrlar mustaqil tanlov orqali saralab olinib, bu tizim – davlat xizmatchilarining sifat tarkibini yaxshilash, davlat organlari va tashkilotlarning malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojlarini o'z vaqtida qondirish hamda davlat apparati samaradorligi va raqobatboshdoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish maqsadida davlat xizmatiga malakali shakllantirish" – dolzarb masalalardan.

Salohiyatlari kadrlar – eng muhim resurs

Bugungi kunda o'z vazifalarini teran anglaydigan, sifatlari davlat xizmatini ko'rsatish uchun zarur malaka va kompetensiyalarga ega salohiyatlari kadrlar orqali erishishimiz mumkin bo'ladi.

Harvard biznes maktabi tadqiqotlarda qayd etilganidek, "Inson resurslari har qanday tashkilotning eng muhim boyligi va uning muvaffaqiyati kaitidir".

Haqiqatan ham, har bir davrda kadrlar va ular bilan bog'liq siyosat – islohotlarning drayveri, o'zgarishlarni ro'yoba chiqaruvchi yetakchi kuch sanalgan.

O'z navbatida, davlat xizmatchilar o'z salohiyatlari, qobiliyati va imkoniyatlarni to'liq

KELISHUVLAR IKKI MINTAQА TARAQQIYOTIDA ALOHIDA O'RIN TUTADI



1 Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yolning mamlakatimizga davlat tashrif va uning doirasida erishilgan natijalar hamkorlik salohiyatidan yanada samarali foydalanish, yirik yuqori texnologik loyihalarni aniqlash va ilgari surish uchun yangi imkoniyatlar eshigini oshishga xizmat qilganimligi bilan ahamiyatlidir. Jumladan, ikki mamlakat delegatsiyalari ishtirokida bo'lib o'tgan muzokalar yakunida davlat rahbarlari alohida strategik sherkilikni yanada chiqurlashdirish va har tomonlama kengaytirish to'g'risidagi Qo'shma bayonotni imzoladi.

Shu bilan birga, muzokalar chog'ida kelgusi uch yil uchun O'zbekiston – Janubiy Koreya alohida strategik sherkligining yangi yuqori texnologiyali kun taribini shakkantirish muhimligi ta'kidlandi. Buning uchun ikki davlat hukumatlari hamkorligida O'zbekiston mintaqaviy yuqori texnologik xab yaratish bo'yicha strategik dastur tayyorlanishi belgilandi.

O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'tasida

boshlangan iqtisodiy loyihalar qisqa vaqtida o'zingi ijobji natijalarini ko'rsatayotgani bilan e'tborga molik. Fikrimiz tasdig'i sifatida aytish mumkinki, joriy yil bahorida Jizzax viloyatida "KIA" avtomobililarini yig'ish liniyasi ishga tushirilgan edi. O'tgan 2-3 oylik vaqt davomida ushu rusumli avtomobil xaridorlar ko'ngidan joy olib ulgirdi.

Yana bir istiqbolli loyihha, bu – "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasida optik tolali aloqa kabellarini ishlab chiqarish maqsadida tashkil etilgan "Global Optical Communication Uzbekistan" mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi O'zbekiston – Janubiy Koreya qo'shma korxonasıdır. Hozirda korxonada import o'rnni bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha jadal ishlar amalga oshirilayot.

Ishonamizki, ushu tashrif va uning doirasida o'zaro manfaatlari hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari, qolaversa, istiqbolga yo'naltirilgan maqsadlarning belgilab olinganligi yaqin kelajakda ikki davlat o'tasidagi aloqalar rivojida yangi sahifa ochilishiga xizmat qiladi.

Muzaffara ABDIYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida "Yoshlar olyigi" munosabati bilan "Ochiq eshiklar kuni" doirasida bir qator uchrashuvlar o'tkazildi. Ularda O'zbekiston Liberal-Demokratik partiyanining "Yoshlar qanoti" faoliari, "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti" milliy tadqiqot universiteti, Toshkent menejmenti va iqtisodiyoti instituti talabalari ishtirok etib, quyi palata faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-qvvatlash yili"da amalga oshirishga

oid davlat dasturida belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib parlamentda tashkil qilinayotgan bunday

muloqotlar montazamlik kasb etib borayotgani e'tiborga molik. Zero, "Xalq uyi"da talabalarning deputatlardan o'zlarini qiziqitirgan savollarini bermalol so'rab javob olishlari uchun muloqot

o'rganish yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Qonunchilik palatasi faoliyati bilan tanishish jarayonida talaba-yoshlarga quyi palata, siyosiy partiylar fraksiyalari hamda qo'mitalar ish faoliyati, qonunlarni qabul qilish jarayoni haqida so'zlab berildi. Qonun loyihalarini ishlab chiqish, ularni dastlabki tarza ko'rish, birinchini va ikkinchi o'qishga tayyorlash, yalpi majlis muhokamalariga kiritish bilan bog'liq muhim masalalar yuzasidan atroficha ma'lumot berildi.

Uchrashuvlardan so'ng yosholarning taassurotlari bilan qiziqidik.



Azimbek G'ANIYEV,
O'ZLiDeP "Yoshlar qanoti" faoli:

– Xalq vakillari bilan muloqot chog'ida davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslarning hayotimizda nechog'li ahamiyatiga egaligi, dolzarbli, ular doirasida ro'yobga chiqarilayotgan islohotlar haqida zarur ma'lumotga ega bo'ldik. Aytish mumkinki, bu kabi tadbirlar yosholarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida yanada faol ishtirok etishini ta'minlash, parlament haqidagi bilimlarimizni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu yil mamlakatimizda muhim siyosiy jarayon – parlament saylovlar o'tkazilishini e'tiborga oladigan bo'lsak, "Ochiq eshiklar kuni" orzularimiz sari bir qadam tashlashga imkon beradi.

Ozoda NURALIYEVA,
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti" milliy tadqiqot universiteti talabasi:

– "Ochiq eshiklar kuni" doirasida o'tkazilgan muloqotlarda qonun ijodkorligi, siyosiy partiylar fraksiyalari va qo'mita ish uslublari hamda parlamentarizm sohasidagi yangiliklar haqida ko'plab ma'lumotlar oldik. Agrar sohada yaqinda qabul qilingan qonunlar va ularning ahamiyati haqida tushunchaga ega bo'ldik. Bu biz, bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislar uchun foydal bo'ldi. Shu bilan birga, quyi palata ekskursiya jarayonida Oliy Majlis tarixi aks etgan muzeysi hamda qonunlar qabul qilinadigan katta majlislar zali bizda katta qiziqish uygti.

Jasurbek RAJABOV,
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti talabasi:

– Deputatlar bilan muloqot chog'ida qabul qilinayotgan qonunlar mazmuni, muhokamalar jarayoni, tortishuvlar, bahsmunozalar haqida ma'lumotlarga ega bo'ldik. Aholi manfaatlarini ta'minlash, iqtisodiy barqarorlikni ka'folatlashga qaratilgan qonunlarning mazmun-mohiyatidan xabardorligimiz oshdi. Ayni chog'da palataning ish faoliyati bilan yaqindan tanishdik. Har jihatdan zamonyav, ilmiy, huquqiy va badiiy adabiyotlarga boy bo'lgan parlament kutubxonasi menga juda manzur bo'ldi.

"Xalq so'zi".

SHUKRONALIK VA MEHR-MURUVVAT BAYRAMI

1 Muhammad Narshaxiyning yozib goldirishicha, Buxoro mashhur alloma Abu Hafz Kabir tufayli IX asr boshlarida "Qubbatul Islam" – "islom dinining gumbazi" nomiga musharraf bo'lgan. Bu go'shada diniy ayyomlarni nishonlash, hayti namozini o'qish har bir mo'min-musulmon uchun sharaf.

Buxoroda minglab musulmonlar hayti namozini o'qib, el-yurtimiz bilan birga Qurbon hayitiga tinch-monim yetkazgani uchun Yaratganga cheksiz shukronlar aytdi, – deydi Bahouddin Naqshband majmuasidagi jome masjid imom-xatibi G'afurjon hoji Razzoq. – Mamlakatimizda diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli 700-yillik tarixa ega Bahouddin Naqshband me'moriy majmuasi o'zining asl ko'renishinga qaytmoga. Yaqingacha qarovsiz holatda turgan Toqi miyonra darvozasi, qadimiy yo'tak qayta tiklandi. Xayriya maqsadida qurilishi, vaqf qilingan Donyobiloy madrasasi o'z o'rniда qad rostildi. Me'moriy majmuada muqaddas islam dini buyurgan ibodatlarini bajarish uchun barcha sharof yeterli.

Viloyatdagi 105 ta jome masjidda hayti namoz o'qildi. Qurbon hayiti munosabati bilan mehnat faxriyalar, imom-xatiblar, mahalla faoliyatlari tomonidan madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda.

Jizzax viloyatining Qo'shchinor jome masjidida o'qilgan Qurbon hayiti namozida viloyat bosh imom-xatibi Prezidentimizning Qurbon hayiti munosabati bilan xalqimizga yo'llagan bayram tabrigi xususida to'xtalib o'tdi. Hayti namozini 42 mingdan ziyod jizzaxxonalar viloyatdagi 169 ta jome masjidida bir vaqtida ado etdi.

Sahar saat 3:00 dan saat 10:00 gacha barcha jamoat transporti fuqarolarga bepul xizmat ko'shishadi. Yo'llardagi tibrandilarning oldini olish, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, namozxonalar salomatligini nazorat qilish uchun viloyat Ichki ishlar boshqarmasi yo'llar harakati xavfsizligi, sog'ligi saqlash boshqarmalari xodimlari va boshqa mutasaddilar bermannat xizmat ko'shishadi. Bu xayrlar ishlar samarasida Qurbon hayiti namozini jizzaxxonalar jamaot bo'lib, osoyishtalikda o'qish baxtay yuyasasi bo'ldi.

Bir siniq ko'ngilni ko'tarish Ka'bani obod qilishga tenglashtirilgani haqida barchamiz Alisher Navoiyning bebabu misralari, ya ni: "Kinki bir ko'ngili buzuqning xorin shod aylagay, Oncha borkim Ka'ba vayron bo'sa, obod aylagay" deganlarini yaxshi bilamiz. Bugun millionlab navoiyliklar qalbi ham shundan quronvchiga bo'ldi.

Navoiy viloyatidagi Qosim shayx, Mavlono Orif Dehgaroniy, Qilich ota, Toshmasjid, Oqmasjid, Qanarboy ota ziyoratgohlari, Nurota chashmasi majmualarida hayti sayli o'tkazildi. Kam ta'minlangan bo'qchusini yo'tqong oilarha hamda yolg'iz keksalarning holdidan xabar olib, ularga mehr-muruvvat ko'satildi.



2024-yilning sentabr oyida Namangan viloyatining Uchqo'rg'on tumanida O'zbekiston va Qirg'izistonning bog'lovchi chegara bojxona posti foydalanishga topshiriladi.

Karmanadagi Qosim shayx va Navoiy shahridagi Alisher Navoiy, umuman, viloyatdagi 70 ga yaqin jome masjidlarda saodatli kunlar ibodati ado etilib, el-yurtga tinchlik, osoyishtalik so'raldi.

Namangan viloyatidagi shahar va qishloqlarda shishonlanayotgan Qurbon hayiti bayramida yurtimizdagi totuvlik, xotirjamlik, har bir sohada amalga oshirilayotgan ulkan buryodkorlik ishlarining shukhi urfuri turibdi. Yaxshilikka, savob ishlarga chorlaydigan muqaddas aymonda viloyatdagi 188 ta jome masjidida hayti namozni o'qildi.

– Ilyi Qurbon – chinakam xayr-saxovat aymoni. Bayramni namangankilalar egzu amallar bilan kutib olishdi, – deydi O'zbekiston faxriyalarining ijtimoiy-siyosiy qurboni o'tlab-qvvatlash "Nuroni" jam'armasi Chust tumani bo'limi rahbari Jo'ronox Mirahmedov.

– Bayram arafasida hokimiyat, korxonalar, tashkilotlar, jamaotchilik vakillari bilan nogironligi bo', yolg'iz qariyalar, ijtimoiy himoya muhitga multoq fuqarolar istiqomat qilayotgan 174 ta xonadonga oziq-ovqat mahsulotlaridan iborat tuhfalar bilan kirib borildi. Bundan tashqari, xalq deputatlarida tuman Kengashining qarori bilan hududlardagi 380 nafr fuqarog'i dori-darmon va oziq-ovqat mahsulotlari sotib olish uchun bir martalik moddigi yordam mablag'larini ajratildi. Ayyom joylarda o'tkazilgan boshqa ko'ngilochar tadbirlar bilan yanada mazmuni kechmoqda.

Sirdaryo viloyatida ham Qurbon hayiti tinch, tartibili, ko'tarinku kayfiyatda o'tdi. Ertas tunganodan qurbonlik vakillari bilan bir guruh nuroniylar Sirdaryo tumanidagi Muruvvat uyida davolananayotgan e'tiborga muhitga xotin-qizlar holdidan xabar olishdi.

– Qurbon hayiti – xayr-ehson, saxovat, mehr-muruvvat bayrami, – deydi xotin-qizlar faoli Mavluda Sobirova. – Arafa va hayti kunlari bemorlar yo'qlangani, xonadonlarda amalga oshirilgan

qurbonliklar, ijtimoiy himoya va mehroga muhtojo kishilarga ulashilgan xayr-ehsonlar qancha-qancha ko'ngillarni xushnud qildi.

Hayit namizi viloyatning turli hududlaridagi 75 ta jome masjidida a do etib etdi.

Namozxonalarning ushu muborak ibodatni bajarishtilar uchun barcha sharoit

yaratildi.

Qurbon hayiti Surxondaryo viloyatida shodu xurramlik va shukronalik kayfiyatida boshlendi. Viloyatdagi 130 ta jome masjidida hayti namozni o'qildi. Unda minglab vohaliklar saodatli kun ibodatini ado etdi.

Xususan, Termiz shahridagi Hakim Termeziy jome masjidida ertas tunganodan qurbonlik vakillari bilan gavium bo'ldi. Hayit namozida Surxondaryo viloyati hokimi va boshqa mutasaddilar ishtirok etib, yig'ilganlar Qurbon hayiti bilan tabrikildi.

Ayni paytda surxondaryolyik 768 nafr yurdoshimiz Saudiya Arabistonida muborak haj ziyoratini amalga oshirmoqda. Din mas'ullari tomonidan aynan arafasida homiyalari jalb etgan holda joylarda nogironligi borlar, yolg'iz keksalar, boqvuchisini yo'qotgan hamda kam ta'minlangan o'lalarga moddigi yordam ko'satildi. Ikkinci jahon urushi qatashchilarini, mehnat faxriyalaridan xabar olindi. Mehrbonlik, Muruvvat va Saxovat uylarida xayriya tadbirlari yushtirildi.

Farg'ona viloyatida ezzigul tadbirleri doirasida kam ta'minlangan oilar xolidan xabar olindi.

Ularga bayram sovg'alarini ulashildi. O'z navbatida, viloyatdagi 4 ta Saxovat uyiga 17 million so'mlik kiyim-kechak hamda oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi. Shuningdek, ikkinchi jahon urushi va mehnat frontining 60 nafr faxriysi, o'zgalar parvarishiga muhtoju nuroniyiga kundalik zaruriy mahsulotlar yetkazib berildi.

– 193 ta masjidda Qurbon hayiti namozni o'qilishi uchun qulaylik yaratish maqsadida Chust tumani bo'limi rahbari Ko'pnig'iz Mirahmedov.

– Deydi O'zbekiston muslimonlari idorasining Qashqadaryo viloyatidagi vakili, viloyat bosh imom-xatibi Rahmatillo Usmonov. – Dinimizning muhim amallaridan biri – haj ibodatini ado etishga keng yo'qilgani yurdoshlarimizning bu boradagi orzu-umidlarini ro'yobga chiqardi. Davlatimiz tomonidan ulaming ibodatni to'liq ado etib, Vatanimiza sog'alomat qaytbil kelishi uchun barcha sharofat yaratilmoqda. Bugungi fazilatli kunlarda butun dunyo muslimonlari qatori viloyatimizdan ham 801 nafr ziyoratchi haj amallarini ado etish maqsadida Makka shahrida bo'lib turibdi. Ular haj ibodatini ado etish bilan birga yurtimiz tinchligi, xalqimizning farovon, mamlakatimizning yanada rivoj topishini so'rab, duolar qilmoqda.

Qurbon hayiti shukhi mamlakatimizdagidagi barcha mahalla va xonadonlarda, yurdoshlarimiz qalibida davom etmoqda.

"Xalq so'zi".

Ochiq eshiklar kuni

YOSHLAR QONUNCHILIK PALATASI FAOLIYATI BILAN TANISHDI



muloqotlar montazamlik kasb etib borayotgani e'tiborga molik. Zero, "Xalq uyi"da talabalarining deputatlardan o'zlarini qiziqitirgan savollarini bermalol so'rab javob olishlari uchun muloqot

o'rganish yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Qonunchilik palatasi faoliyati bilan tanishish jarayonida talaba-yoshlarga quyi palata, siyosiy partiylar fraksiyalari hamda qo'mitalar ish faoliyati, qonunlarni qabul qilish jarayoni haqida so'zlab berildi. Qonun loyihalarini ishlab chiqish, ularni dastlabki tarza ko'rish, birinchini va ikkinchi o'qishga tayyorlash, yalpi majlis muhokamalariga kiritish bilan bog'liq muhim masalalar yuzasidan atroficha ma'lumot berildi.

Uchrashuvlardan so'ng yosholarning taassurotlari bilan qiziqidik.

QISQA SATRLARDA

Gumanitar loyiha – iqtidorlilar uchun


Janubiy Koreyadagi "Gimcheon High School" maktabi

BUYUK HUKMDORNING ZAFARNOMASI

Yaqinda Sharafuddin Ali Yazdiy

"Zafarnoma"sining yangi nashri dunyo yuzini ko'rdi. Bu ma'naviy hayotimizdag'i muhim vogeliklardan biridir. Chunki buyuk davlat arbobi, sarkarda Amir Temurning hayoti va faoliyatni, kengashlari, janglari, fazilatlari hamda qahramonliklari haqidagi ushbu kitob yurtdoshlarimizda Vatanimiz tarixiga hurmat, buyuk ajdodimizdan faxr-ifixor tuyg'ularini yanada yuksaltiradi.

Asarni mutolaa qilgan kishi borki, Amir Temur XIV-XV asrlar jahon tarixini batamom o'zgartirib, yangi bir o'zanga solib yuborganini, tengsiz saltanat tuzganini, "Yevropa xaloskorii" sifatida maydonga chiqqanini, mulki Turonni, uning poytaxti Samarqandni dunyoga mashhur qilganini, turkiylar g'ururini olamshumul darajaga ko'tarib yuborganini teran anglaydi.



Шарафуддин Али Йаздий

ЗАФАРНОМА

so'zlarini keltirdi: "Yaxshi va ravon so'z uldkirim, avom xalq uning ma'nosini anglagay, xos kishilar esa ayb qo'ymagay", dedi... va o'zining bir baytlik she'rini ilova qildi:

*"Gar iste'dod bo'limasa,
hech kim aytolmas,
Xosga maqbulu
omma tushungandek so'zni".*

Amir Sohibqiron hazrat: "Men ana o'shandoq so'zni xohlayman", dedi.

Bu ibratlari so'zlar hozir ham o'z dolzarbigini yo'qtogani yo'q.

**«Andin el-ulus foyda
topqaylar»**

Nizomiddin Shomiy Amir Temur o'gitlariga rioxva qildi. U "zafarlar yor bo'lgan" Sohibqiron tarixini "Zafarnoma" deb nomladi. Va bu nom Amir Temur tarixiga yopishdi-qoldi. Undan keyin Sharafuddin Ali Yazdiy ham o'z asarini "Zafarnoma" deb nomladi.

So'nggi davrlar, ayniqsa, bugungi kun tarixnavigi nuqtayi nazarida Shomiyning "Zafarnoma"si mukammal emas, chunki unda 1404-yilning mart oyigacha sodir bo'lgan vogeliklar qalamga olingen. Undan keyingi, Sohibqiron hayotining so'nggi kunlarigacha va vafotidan keyingi tarixiy jarayonlar asarda aks etmagan.

Bu kematkni Sharafuddin Ali Yazdiy to'ldirdi. U o'z "Zafarnoma"sin 1424-1425-yillarda tugatgan.

Yazdiyning "Zafarnoma"si Amir Temur va uning davri xaqida yozilgan eng mukammal, haqqoniy, xolisona tarixiy asardir. Chunki mukammal asar yaratishga hukmdor Ibrohim Sultan bosh-qosh bo'ldi. Har bir vogelikni qayta tekshirtili, aniqlik kiridi, tahlil qildirdi va adolatli yechimni topdi. Yazdiy ana shu manbalar asosida o'z "Zafarnoma"sinu yaratdi.

Asar Amir Temuring tug'ilishidan to'limigacha, undan so'nggi vogeliklar, Xalil Sultonning taxtni egallashi tafsilotlarigacha qamrab oлган. Asar xotimasi Amir Temurdan 36 nafr o'гlon, qiz va nabira qolgani, ularning ismlari va yoshlari ko'sratilgan axborot bilan yakun topgan.

Asarda yuzlab tarixiy shaxslarning ta'rifi, xizmatlari, vazifalari haqida aniq axborotlar berilgan. "Zafarnoma"ning markazida doim Sohibqiron obrazni turadi.

Asar fors tilida, yilnomha sifatida, bayon uslubida yozilgan.

Kezi kelganda aytilish joiz, Muhammad Ali – bobomiz Amir Temur va uning davri tarixinining bilimdonlaridan biri sifatida elimizda tanilgan shaxs. Adibimiz mustaqillikchaka bo'lgan qalitsi bir davrlarda ham Amir Temur to'g'risida doston va romanlar yozib, jo'mardlik qilgan, vatanparvar kurashchi sifatida maydonga chiqqan arbolarimizdan biridir.

"Zafarnoma" o'quvchilarini Amir Temur dunyosiga olib kiradi. Olamshumul tariximizning eng shonli davrlarida yuz bergan vogeliklar haqidagi bilimlarini yanada boyitib, g'urur-ifixor tuyg'ularini yanada kuchaytiradi.

Temur SHIRINOV,
O'zbekiston Respublikasi fan arbobi.

"...mavlono Sharafuddin Yazdiy... forsyili bilan Temurbekning voq'i otini aytib turur, tojiklar andin bahra topib, turk eliga fayz tegmay turur, ersa kerakkim, bu kitob turkiy bilan bo'lgay, to andin el-ulus foyda topqaylar". Bu so'zlar Muhammad Ali ibn Darvesh Ali Buxoriya tegishli bo'lib, u 1519-yili Sharafuddin Ali Yazdiyan qariyb yuz yil keyin "Zafarnoma"ni Ko'chhunchxonan farmoniga binoan o'zbek tiliga tarjima qilgan edi.

Xos va mos kitob

"Zafarnoma" ko'plab tillarda, ayniqsa, o'zbek va turk tillarida qayta-qayta nashr qilindi. 1997-yilda "Zafarnoma" ona tilimizda Toshkentda chop etildi. Xalqimiz uni mustaqilliging abadiyligining bir nishonasi sifatida ko'tarinki ruhda xursandchilik bilan qabul qildi. U qo'lma-qo'l bo'lib ketdi, bir zumda bibliografik noyob asarga aylanib qoldi.

Mana shundan beri chorak asrdan ortiq vaqt o'tibdi. Yangi O'zbekiston, yangi avlod, ziyoililarimiz "Zafarnoma"ni anchadan beri intiqliq bilan kutayotgan edi. Nihoyat, "Yangi asr avlod" nashriyoti bu nodir yodgorlikni qayta chop qildi. Bu niroyatda quvonalaridir.

Yangi kitob o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. "Nashriyotning rejasiga ko'ra nashr qilindi yokiunga ko'ra nashr etiladi", degan gaplar allaqachon unut bo'lib ketgan. Millat uchun foydalı, xotiramiz uchun muqaddas hisoblangan kitoblar kimgindir sa'y-harakatlari, yugur-yugurlari, jonbozliklari evaziga dunyo yuzini ko'radi.

"Zafarnoma" asarining yangi nashri ulug' yozuvchimiz Muhammad Alining jombozligi evaziga dunyo yuzini ko'rdi. Adib 80 yoshdan oshganiga qaramasdan tinib-tinchimaydigan tashkilotchi, olim, ijodkor inson. Muhammad Ali "Zafarnoma"ni nashr qilish jarayonida yurtimizning zukko olimlariyu noshiralarini o'z atrofiga yig'di. Natijada "Zafarnoma" Amir Temur dahosiga, xotirasiga xos va mos kitob bo'ldi.

Kitobning o'ziga xos dizayni, arxitekturasi, texnik ijsrosi alohida maqtovga loyiq. Hatto harflarning katta-kichikligi, shriftlarining ko'zni toliqtirishmaydigan ko'rinishi, qog'ozning rangi – barcha-barchasi o'quvchining didiga moslab tarlangan. Kitoba mingdan ortiq izohlar, undan kam bo'lmagan bibliografik ko'rsatkichlar ilova qilineng. Bular kitobxonga qulaylik tug'diradi.

Asar fors tilida, yilnomha sifatida, bayon uslubida yozilgan.



22 MING NAFAR BOLA YOZGI OROMGOHLARDA DAM OLADI

Joriy yozgi mavsumda Qashqadaryo viloyatining Kitob, Shahrisabz, Yakkabog' tumanlari hamda Shahrisabz shahridagi so'lim go'shalarida joylashgan 16 ta statcionar bolalar oromgohida 7 dan 14 yoshgacha bo'lgan 22 ming nafr bolani dam oldirish va sog'lomlashtirish rejalashtirilgan.

Ta'til

Viloyatda mavsumning 1-navbatli 5-iyundan boshlanib, shu vaqtga qadar 4,5 mingga yaqin bolajonlar yozgi oromgohlarga jo'natildi.

Kitob tunanining Qaynar qishlog'ida joylashgan "Yosh alangachi" oromgohi ham mavsumning birinchi bosqichida 396 nafr bolani o'z bag'iga chorladı.

– Bolajonlarning mavsumni maroqli o'tkazishi uchun oromgohda barcha shart-sharoit hozirlangan, – deydi "Yosh alangachi" bolalar oromgohi direktori Bekmurod Ko'charov. – Shu bilan bir qatorda, mas'ul tashkilotlar bilan hamkorlikda turli ko'ngilochar, intellektual yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqalari o'tkazib borilmoqda.

Ana shunday tadbirdan biri Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qashqadaryo viloyati bo'limi bilan hamkorlikda o'tkazildi. Unda oromgohda hordiq chiqarayotgan bolajonlar ko'plab taniqli ijodkorlar bilan uchrashib, ularning ijod namunalardan bahramand bolishdi.

Shuningdek, mohir hunarmandlar ishtirokida mahorat darslari, "Ona tabiatni asrang" mavzusi rasmlar tanlovi o'tkazildi. Ushbu tadbirda faol qatnashgan bolajonlarga tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik sovg'alarini topshirildi.

Yosh iste'dod egalari tomonidan namoyish etilgan musiqiy dastur tadbiriga yanada o'zgacha shukuh bag'ishladi.

Jahongir BOYMURODOV
(Xalq so'zi).



Mutolaa

«Men ana o'shandoq so'zni xohlayman»

Xo'sh, buyuk hukmdorning zafarli hayoti va faoliyati solnomasi qanday yaratilgan? Ma'lumki, Amir Temur 1370-yili hokimiyatni qo'lg'a oldi. Movarounnahning bir-biri bilan dushmanlashib to'zib ketayotgan barchabeklar boshini qovushitirib, ularni ona Vatan istiqolodek ulug' maqsad yo'liga safarlar qildi. Buyuk hukmdor jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan ulkan markazlashgan saltanat tuzdi va uning poytaxti qilib afsonaviy Turon davlati hukmdori Alp Er To'nga asos solgan Afrosiyobi. – Samarqandni tanladi.

Amir Temur saltanatida o'ziga xos davlatchilik tizimi bor edi. Vazirlar, hokimlar, devon ishlari – barcha tuzilmalar o'z vazifasiga ega bo'lgan. Devon ishlaringning tarixini yaratish topshirishni berib, munshiylar, baxshilar bo'lib, ular "saroy kundaliklari"ga harbiy yurishlar, jang tafsilotlari, Amir Temur, shahzodalar, amirlar, nufuzli beklar hayoti to'g'risidagi axborotlari doimiy yozib borishgan. Davlatlar, ularning hukmdorlari, elchilar to'g'risida ham axborotlar yig'ilgan. Tarix yozish uchun saltanat bo'ylab eng iqtidori, donishmand shaxslar topib kelingan. Bu ishlarni Amir Temur o'ta muhim hisoblab, o'z nazaridan uzoqlashtiraman. Ko'p xollarda, o'zi to'g'ridan-to'g'ri tarixiy jarayonlarni yorishit uchun topshiriq va ko'satmalar bergen.

1398-yildagi Hindiston yurishi arafasida Amir Temur G'iyosuddin Ali ibn Jamol Yazdiya bo'lajak harbiy yurishlar jarayonlari tarixini yaratish topshirishini berdi va uni qo'shin bilan birga olib ketdi. G'iyosuddin Ali Amir Temuring barcha katta-kichik chog'ida donishmandlarning quyidagi

ASFALT QOPLAMALARGA SIRTQI ISHLOV BERISH ORQALI ULARNING "UMRI" UZAYTIRILMOQDA



Ko'p guvohi bo'lganmiz, yo'ga bugun asfalt bosiladi, biroz muddat o'tgach esa unda notejislik, ko'chish kabi holatlarni yuzaga keladi. To'g'ri, bunga avtomobillar harakati, yer qatlaming yumshoqligi, yog'ingarchilik va boshqalar sabab bo'lishi mumkin. Ammo nima bo'lishidan qat'i nazar, 5 – 10 yillik kafolati bilan bosilgan asfalt sanqligi kunlardo yoq "ishdan chiqadi". Qarabsizki, yo'la yana ta'mirtalab holatga kelib qoladi. Natijada ishchilar yo'lining nobob qismining asfaltlab, go'yoki uni yamagandy bo'lishadi. Biroq birinchi yomg'irdan so'ng bu "yamoq" yana ko'chib ketaveradi.

Muammoga yechim



Andijon viloyatida bu kabi holatlarni sifatli bartaraf etish maqsadida "sug'orish" texnologiyasiidan foydalaniilmoqda. O'z-o'zidan savol tug'iladi: xo'sh, bu qanday texnologiya?

– Bu, aslida, asfalt qoplamasiga sirtqi ishlov berish deyiladi, – izoh beridi viloyat Avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi

boshlig'i Mirzohidjon Nurmatov. – Bu uslub avvaldan mavjud bo'lgan, biroz keyinchalik ayrim sabablariga ko'ra qo'llanilmagan. Bugungi kunga kelib uning afzalliklarini, qulayliklari hisobga oлgan holda amaliyotga joriy eta boshladik. Avvalo, hududagi mavjud asfalt ishlab chiqaruvchi korxonalarda maxsus birkimlaridan tarkib topgan qorishma tayyorlab olinadi. U asfalt xomashyosidan 5-6 barobar arzonqa tushadi. Yo'l asfalt xomashyosi bilan ta'mirlanganda turli sabablarga ko'ra shu joydag'i "yamoq" o'z-o'zidan ko'chib ketadi. Bu qorishma esa yo'ning qatlama oralig'iga singib, yelim kabi qotib qoladi.

Shu bois yog'ingarchilik paytida suv yo'lining yuza qismiga salbiy ta'sir ko'sata olmaydi. Natijada asfaltning sirtqi qismida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yemirilishning oldi olinadi. Bu uslub orqali yo'ning foydalanish muddati ma'lum vaqtga ortadi.

Oddiy qilib aytadigan bo'lsak,

inson harakat natijasida chanqaganai kabi asfalt yo'l ham ma'lum muddatida "chanqaydi". Shunda uning tarkibida o'zgarishlar yuzaga keladi. Ya'ni qatlamdagidagi namlik yo'qolishi tufayli yoriladi, og'ri bosimga bo'lgan chidamlilik darajasi pasayadi, sifati so'nadi. Bu muammoni bartaraf etish uchun esa uni "sug'orish" kerak bo'ladi. Qarabsizki, shu taripa asfalt yo'l yana bir necha yil davomida sifatlari xizmat ko'sata oladi.

Amaliyotda yuqori natijani ko'satgan ushbu uslub orqali bu yil Andijon viloyatida 30 kilometrdan iborat yo'l ta'mirlanishi ko'zda tutilgan. Buning uchun 4 milliard so'mdan ortiq mablag' sarflanishi rejalashtirilgan. Hozirda 100 nafr ishchi va 20 dan ziyod texnika vositalarining samarali mehnati tufayli bir kunda 3 kilometrdan oshirib yo'l ta'mirlashga erishilmoqda.

Saminjon HUSANOV
(Xalq so'zi).

O'zbekistonlik o'quvchilar shu yil 8 – 15-iyun kunlari Londonda o'tkazilgan xalqaro olimpiadada sovrindor bo'ldi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oly Majlis
Qonunchilik palatlari Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oly Majlis
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

Axborot va ommaniyyat agentligida 0001-raqam bo'yoxtaga olingan. Nashr indeksi — 229.
Buyurtma G 542.14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. O'set usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2.
Bahozi kelishilgan narxa.

TELEFONLAR:
Devonxonha 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va
muallifa qaytarilmaydi.

Gazetaning yekabz berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan
tasbihot javobiga.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilib handa operator
M. Begumovdan salishafanlandi.